

# INNOVATION SCIENCE AND TECHNOLOGY



Scopus || Electronic journal specializing in Scopus

**ISSUE 7**



Acceptance of papers **July, 2025**



**Acceptance of  
papers**

Published monthly



**Topics**

economics,  
technology, social  
sciences

**ISSN 3060-5229**



Digital  
Object  
Identifier



Visit the website  
[t.me/scopus\\_IST2100](https://t.me/scopus_IST2100)



**EDITOR-IN-CHIEF:**

Mirzaliev Sanjar Makhmatjon ugli

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Makhmudov Nosir Makhmudovich  
DSc., Prof., Academician

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli – Senior  
lecturer at TSUI

THE SCIENTIFIC-POPULAR ELECTRONIC  
JOURNAL **"INNOVATION SCIENCE AND  
TECHNOLOGY"** HAS BEEN REGISTERED  
UNDER THE NUMBER **C-5669633** BY THE  
AGENCY FOR INFORMATION AND MASS  
COMMUNICATIONS (AOKA) OF THE  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN, EFFECTIVE  
FROM OCTOBER 9, 2024.

**CONTACTS**

Phone: **97-748-70-03**

Website: <https://ist-journal.uz>

Email: [munis.iriskulova@gmail.com](mailto:munis.iriskulova@gmail.com)

The scientific electronic journal "Innovation Science and Technology" has been included in the list of scientific publications recommended for the publication of main scientific results of dissertations for the award of PhD and DSc degrees in economics and technical sciences, in accordance with the Resolution No. 370 of the Presidium of the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan, dated May 8, 2025.

**Editorial board:**



**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,**  
Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor



**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,**  
Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor



**Cham Tat Huei,**  
Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)



**Muhammad Imran Sadiq**  
Doctor of Philosophy in Economics (PhD),  
Professor, Malaysia



**Ahmed Aziz Ismail**  
Doctor of Technical Sciences (DSc),  
Professor (Egypt)



**Lee Chin**  
Doctor of Philosophy in Economics (PhD),  
(Malaysia)



**Asongu Simplicé**  
Doctor of Philosophy in Economics (PhD),  
Cameroon



**Rui Dang**  
Doctor of Chemistry (DSc), Professor, China



**Zahoor Ahmed**  
Doctor of Philosophy in Economics (PhD), Turkey



**Shujaat Abbas**  
Doctor of Philosophy in Economics (PhD), Russia



**Tina A Coffelt**  
Doctor of Philosophy in Educational Sciences  
(PhD), USA



**Judy B. Smetana**  
Doctor of Philosophy in Economics (PhD), USA

# CONTENTS

Nephrogenic anemia as a risk factor for the development of cardiovascular disorders in children with chronic kidney disease .....	6
<b>Aralov Mirza Dzhurakulovich</b>	
The impact and specific features of international financial institutions (IMF, world bank) on public debt policy .....	10
<b>Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich</b>	
Use of management methods in the organization of pedagogical processes .....	13
<b>Uraqov Shokir Ulashovich</b>	
A linguistic analysis of english and uzbek media discourse: examining public media speech .....	17
<b>Rizaeva Kamola Shuxratovna</b>	
Ecological hotel in the formation of the product such as the electronic catalogue.....	24
<b>Abidova Dilfuza Igamberdievna</b>	
Calculation of standardized electricity losses .....	29
<b>Akbar Ashurovich Shodiev</b>	
Mechanisms for stimulating investment activity at energy industry enterprises.....	33
<b>Matchanov Umirzak Seytjanovich</b>	
The importance of state support for localization in commodity production and the measures taken in this direction in Uzbekistan.....	39
<b>Nasriddinov Qobilbek Qurbonbekovich</b>	
Cleaning of salt water using reverse osmosis.....	45
<b>Kungiratbay Sharipov, Nurmanov Ma'ruf</b>	
Methods of enhancing the financial capacity of the higher education sector through modern financial instruments.....	66
<b>Gulshat Karlibayeva</b>	
Digital economy and the processes of its formation in the conditions of modernization of the economy.....	71
<b>Abdullaev Abdurauf</b>	
Quantum metrology and scientific-metrological aspects of transition to the new SI unit system (2019).....	76
<b>Sitora Akhmedova</b>	
Analysis study of the market conjuncture .....	81
<b>Musayeva Shoirazimovna</b>	
Increasing the benefits of the banking system of Uzbekistan to the state and the population.....	85
<b>Djurayev Kamaliddin Tashbaltayevich</b>	
The housing sector in Uzbekistan: challenges, reforms, and paths toward sustainable urban development .....	89
<b>Salimova Yulduz Isakovna</b>	
The impact of digital transformation on the financial stability of enterprises.....	94
<b>Nozimbek Faxridin oglu Soibov</b>	
Improving tax audit inspections in Uzbekistan .....	99
<b>Yusupov Mansur Rasulovich</b>	
Strategic directions and description of developing service types provided in pilgrimage tourism .....	104
<b>Salomov Temurbek Boburmirzo ugli</b>	
Exploring the potential of islamic finance for sme development in Uzbekistan: a qualitative perspective.....	107
<b>Boltaboyev Abdullajon Kambar ugli, Dr Juliana Sigit S.Pd, Prof Karlibaeva Raya</b>	
The future of corporate governance: Adapting to the dynamics of new business models.....	112
<b>F.Djalilov</b>	
Advanced methods of protecting shareholders' rights in corporate governance.....	118
<b>Ismailov Allayor Rashidovich</b>	

Yashil budget siyosatining nazariy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari..... 124  
**Ubaydullaev No'monjon Isroilovich**

CONTENTS

# YASHIL BUDJET SIYOSATINING NAZARIY ASOSLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Ubaydullaev No'monjon Isroilovich**

TDIU mustaqil tadqiqotchi

**Annotatsiya:** Maqolada yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda institutsional, iqtisodiyot tarmoqlari va yashil mezonlar asosida barqaror iqtisodiyotni shakllantirishga e'tibor berish maqsadga muvofiqligi tadqiq etilgan. Tadqiqotlar asosida yashil iqtisodiyot kategoriyasining rivojlanishi va unga nisbatan yondashuvlarning fundamental jihatlarini tizimlashtirilgan. Yashil yondashuvni shakllantirishda yashil iqtisodiyot elementlari uchligi ishlab chiqilgan. Shuningdek, yashil iqtisodiyot va an'anaviy iqtisodiyotning o'zaro solishtirma tahlili amalga oshirilgan.

**Kalit so'zlar:** qayta tiklanuvchi energiya, yashil iqtisodiyot, resurslarni qayta ishlash, tabiiy kapital, yashil yondashuv, barqaror rivojlanish, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ko'rsatkichlar.

**Abstract:** The article examines the feasibility of shaping a sustainable economy through institutional frameworks, economic sectors, and green criteria in the development of the green economy. The study systematizes the fundamental aspects of the evolution of the green economy concept and the approaches towards it. A triad of green economy elements has been developed to support the formation of a green approach. Furthermore, a comparative analysis between the green economy and the traditional economy has been carried out.

**Key words:** renewable energy, green economy, resource recycling, natural capital, green approach, sustainable development, economic, social and environmental indicators.

**Аннотация:** В статье исследуется целесообразность формирования устойчивой экономики на основе институциональных факторов, отраслей экономики и «зеленых» критериев в процессе развития зеленой экономики. Научные исследования позволили систематизировать фундаментальные аспекты развития категории «зеленая экономика» и подходов к ней. Разработана триада элементов зеленой экономики, обеспечивающая формирование «зеленого» подхода. Кроме того, проведен сравнительный анализ зеленой и традиционной экономики.

**Ключевые слова:** возобновляемая энергия, зеленая экономика, переработка ресурсов, природный капитал, зеленый подход, устойчивое развитие, экономические, социальные и экологические показатели.

## KIRISH

Bizning asrimizda iqtisodiyotning rivojlanishi tabiiy resurslarning qanday foydalanishi va ularning maqsadli taqsimlanishi bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Tabiiy resurslardan ekstensive foydalanish natijasida iqtisodiyot jadal rivojlansa-da, ekologik vaziyatning izdan chiqishi mumkinligini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Resurslardan samarasiz foydalanish ularning qiymatini iqtisodiy o'sishda aks ettirishga olib keladi. Bu esa ekologik oqibatlarining salbiy jihatlarini kuchaytirishi bilan birga, milliy iqtisodiyotning resurslarga qaram bo'lib qolishiga sabab bo'ladi.

Hozirgi kunda ko'plab mamlakatlar o'z iqtisodiy strategiyalarida ekologik oqibatlarni kamaytirishga qaratilgan siyosatni amalga oshirmoqda. Bu esa jahonning ko'plab davlatlarida yashil siyosatning kengayib borayotganidan dalolat beradi. Yashil siyosatning shakllanishi iqtisodiy o'sish tarkibida tabiiy kapitalning ulushini kamaytirib borish orqali namoyon bo'ladi. YaIM tarkibida tabiiy kapitalning ortib borishi iqtisodiyotning aslida rivojlanmayotganini ko'rsatishini ko'plab olimlar ta'kidlab kelmoqda.

Fikrimizcha, yashil siyosatning tarkibiy bo'g'ini sifatida yashil budjet siyosati milliy iqtisodiyotning muhim strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Budjet siyosatining yashil ahamiyat kasb etishi bugungi kundagi fiskal siyosatning ustuvor yo'nalishlarini ifoda etmoqda. Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, yashil yondashuvning shakllanishi an'anaviy iqtisodiy o'sishni barqaror iqtisodiy o'sish bilan almashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

An'anaviy iqtisodiy o'sishda tabiiy resurslarning yoki tabiatning ma'lum qismi qo'shimcha qiymatga aylanishi orqali baholanib kelingan. Barqaror o'sishda esa, har qanday qo'shimcha qiymat ekologik salbiy oqibatlarining mavjud emasligi yoki minimallashtirilgani bilan izohlanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Yashil budget siyosatiga nisbatan yondashuvlarni o'zida qamrab olgan tadqiqotlar ko'plab uchrasa-da, o'zbek olimlari va tadqiqotchilari tomonidan ham tobora e'tibor qaratilayotgan ilmiy yo'nalishga aylanib bormoqda. Jumladan, prof. D. Pulatov va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda yashil budgetlashtirish va energiya samaradorligi kabi tendensiyalarni tahlil qilishga alohida urg'u berilgan. Ularning ilmiy ishlanmalarida yashil iqtisodiyotga o'tishda fiskal siyosat instrumentlaridan foydalanish, ya'ni yashil yondashuv asosida moliyalashtirish, soliqqa tortish, obligatsiyalar emissiya qilish kabilar muhim omil sifatida qayd etiladi. Shuningdek, tabiiy kapital, xususan suv resurslaridan foydalanish samaradorligi daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan mamlakatlarga nisbatan 14 AQSh dollariga past ekanligi ta'kidlanadi. Bunga qo'shimcha ravishda, issiqxona gazlarining atmosferaga emissiya qilinishi barqaror iqtisodiy o'sish modellari zaruriyatini ko'rsatib berishini ham alohida qayd etishadi [1].

Prof. O. Meyliyev va hamkorlari tomonidan yashil budgetlashtirishga oid ilmiy yondashuvlarni asoslashga qaratilgan tadqiqotlar olib borilgan. Ular xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil etib, ulardan kelib chiqadigan ayrim tendensiyalarni milliy iqtisodiyotimiz sharoitiga moslashtirishni taklif etishadi. Shu bilan birga, O'zbekistonda davlat budjeti xarajatlarining yashil iqtisodiyotga ta'sirini aniqlashga e'tibor qaratiladi. Ularning ilmiy xulosalarida ekologik barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan budget xarajatlari yo'nalishlarini asoslab berishga harakat qilinadi. Bundan tashqari, iqlim o'zgarishiga salbiy ta'sir etayotgan budget xarajatlarining asosan tabiiy resurslarni qazib olish, qayta ishlash va qurilish sohasiga to'g'ri kelishi ta'kidlab o'tiladi [2].

Shu bilan birga, dots. N. Ismailova tomonidan amalga oshirilgan izlanishlarda yashil budgetlashtirishga oid ilmiy qarashlar ifodasini topgan. Uning ilmiy xulosalarida yashil budgetlashtirishning afzalliklari keng yoritilib, jumladan tabiiy resurslardan samarali foydalanish orqali barqaror rivojlanish imkoniyatlari, moliyaviy taqchillikning qisqarishi, kuchli ekologik siyosat yuritish va sohaga oid tadqiqotlarning kengayishi natijasida ilmiy ishlanmalarni joriy etish uchun qulay sharoitlar yaratilishi asoslab berilgan [3].

Fikrimizcha, o'zbek tadqiqotchilari tomonidan yashil iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlarini tizimlashtirishga e'tibor qaratilgan bo'lib, bunda yashil budgetlashtirishga nisbatan ilmiy yondashuvlar ustuvor o'rin egallaganini kuzatish mumkin. Olib borilgan nazariy tadqiqotlar asosida quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirish mumkin:

Birinchidan, yashil budgetlashtirishni amalga oshirishda fiskal siyosat instrumentlaridan keng foydalanish, soliqlar orqali ekologik vaziyatni tartibga solish ko'zda tutiladi. Ikkinchidan, iqtisodiyotda yashil siyosatni amalga oshirish jarayonida budget xarajatlarining ijobiy ta'sirini kengaytirish hamda yashil loyihalarni moliyalashtirishni jadallashtirish zarurligi belgilangan. Uchinchidan, issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirishga qaratilgan budget siyosati ustuvor yo'nalish sifatida shakllantirilishi muhimligi ko'rsatib o'tilgan. To'rtinchidan, energiya samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan soliq siyosatidan kengroq foydalanish imkonini beruvchi islohotlarni amalga oshirish dolzarb vazifalardan biri sifatida qayd etiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot metodologiyasi nazariy va amaliy yondashuvlarning uyg'unlashuviga asoslangan. Avvalo, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar (BMT, Jahon banki, XVJ) ma'lumotlari nazariy-metodologik asos sifatida tanlandi. Qiyosiy tahlil usuli yordamida an'anaviy va yashil iqtisodiy o'sish modellari solishtirildi. Statistika tahlil orqali soliq imtiyozlari, davlat subsidiyalari, chiqindilarni kamaytirish va energiya samaradorligini oshirish choralarning iqtisodiy hamda ekologik samaradorligi baholandi. Sistemali yondashuv esa yashil budget siyosatining institutsional va fiskal elementlarini milliy iqtisodiy barqarorlik bilan bog'liq holda o'rganishga xizmat qildi. Ilmiy abstraksiya va deduksiya metodlari orqali umumiy xulosalar shakllantirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR


Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o'tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-213-son qarorining qabul qilinishi mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan islohotlarni rag'batlantirdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Mazkur qaror bilan yashil iqtisodiyotning milliy shaffoflik tizimini rivojlantirishda maqsad va tamoyillarni belgilash, shuningdek, institutsional va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirishga ustuvorlik berilishi nazarda tutilgan.

Fikrimizcha, yashil budget siyosatining rivojlanishi natijasida iqtisodiyotda tabiiy kapitaldan foydalanish samaradorligi oshib boradi. Shu nuqtai nazardan, yashil siyosatni markazlashgan moliyaviy siyosat orqali rivojlantirish imkoniyatlari yuzaga kelishini qayd etish lozim.

S. Veng va hamkorlari tomonidan Xitoyning 284 shahrida olib borilgan tadqiqotda fiskal siyosat (ya'ni, soliq imtiyozlari, subsidiyalar va hukumat xarajatlari ko'rinishidagi) yashil yondashuvlarning muqobil energiya

iste'molini qanday rag'batlantirishi tahlil qilingan. Ularning fikriga ko'ra, hududlar miqyosida soliq imtiyozlari va hukumat xarajatlari qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hajmining kengayishiga olib kelishi aniqlangan. Bu esa fiskal siyosatning ahamiyati tobora ortib borayotganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilma sifati yashil siyosatning natijadorligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi ilmiy asosda isbotlangan. Uning ayrim elementlari 1-rasmda keltirib o'tilgan [4].



1-rasm. Xitoy shaharlarida yashil fiskal siyosatning amalga oshirish elementlari.


S. Li va hamkorlari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda Xitoydagi korxonalarining karbon emissiyasini tartibga solishda yashil budjet siyosatining imkoniyatlari keng qamrovli tahlil qilingan. Tadqiqotlarda, xususan, korxonalar faoliyatida ekologik barqarorlikni ta'minlash, energiya tejash va chiqindilarni kamaytirish bo'yicha qabul qilingan davlat dasturlarining amaliy ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilgan.

Ularning ilmiy xulosalariga ko'ra, mazkur davlat dasturining qabul qilinishi natijasida karbon chiqindilarining intensivligi izchil kamaygan. Bu jarayon, bir tomondan, davlat tomonidan ko'rsatilgan moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari (subsidiyalar), ikkinchi tomondan esa, energiya iste'molini optimallashtirish hamda ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir.

Dasturda belgilangan ustuvor yo'nalishlar qatoriga:

- davlat subsidiyalarini kengaytirish,
- energiya tejash texnologiyalaridan foydalanishni rag'batlantirish,
- chiqindilarni qayta ishlash va kamaytirishga qaratilgan choralarni joriy etish,
- ilmiy-tadqiqot loyihalarini moliyalashtirish va amaliyotga joriy etish kiradi.

Shuningdek, tadqiqot natijalarida davlat ulushi yuqori bo'lgan, asosan eksportga yo'naltirilmagan korxonalarda ekologik salbiy oqibatlarining kuchliroq namoyon bo'layotgani ta'kidlab o'tiladi. Bu holat ushbu turdagi korxonalarda yashil budjet mexanizmlarini kengroq joriy etish zaruriyatini ko'rsatib beradi [5].



2-rasm. Ekologik barqarorlikka fiskal siyosatning ta'siri.

M. Ahmad va E. Satrovir tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda fiskal siyosatning ekologik barqarorlikni ta'minlashdagi roli baholashga qaratilgan. Mazkur maqolada "katta yettilik" davlatlarining 1990–2019-yillarda fiskal siyosat va iqtisodiy ochiqlikning ekologik barqarorlikka hamda issiqxona gazlarining emissiyasiga ta'sirini aniqlash va baholashga e'tibor qaratiladi.

Ular tomonidan fiskal siyosatning o'zgarishi bilan ekologik vaziyatning dinamikasi tahlil qilinib, quyidagi xulosalar shakllantiriladi:

birinchidan, davlat budjeti xarajatlari ham salbiy, ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi va bu holat kontekstga bog'liq ekanligi ko'rsatib beriladi;

ikkinchidan, soliqlar ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda ijobiy ahamiyatga egaligi ta'kidlanadi;

uchinchidan, milliy iqtisodiyotning ochiqlik darajasi ortib borishi bilan ekologik vaziyatga salbiy ta'sir ham kuchayib borishini asoslab berishga harakat qilinadi (2-rasmga qarang) [6].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, xorijiy mamlakatlarda ham yashil siyosatni amalga oshirishda fiskal siyosatning roli muhim ahamiyat kasb etmoqda. Birinchidan, fiskal siyosatning ekspansion va ekstraksion xususiyatda bo'lishi sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchidan, iqtisodiyotning eksportga yo'naltirilganlik darajasi yuqori bo'lganda, ekologik vaziyatning keskin o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Uchinchidan, milliy iqtisodiyotning ochiqlik darajasi ham ekologik barqarorlikka salbiy ta'sir etishi mumkinligi qayd etiladi.

Fikrimizcha, budget xarajatlarining ortishi yoki kamayishi yashil siyosatga ham salbiy, ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu boisdan, budget xarajatlari tebranishi sharoitida uning salbiy oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish dolzarbdir.

Umumiy xulosa qilib aytganda, budget siyosatida qo'shimcha qiymatni ta'minlashda intellektual kapitaldan samarali foydalanish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishish muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, budgetning inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan xarajatlari siyosati ustuvorlikni saqlab qoladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Пулатов Д.Х., Куллиев У.М., Маманов А. Ўзбекистонда яшил бюджетлаштириш, энергия самарадорлиги ва иссиқхона газлари эмиссияси//Яшил иқтисодиёт ва тараққиёт илмий-электрон журналі. – Т., 2024. - №3. – Б.22-28.
2. Мейлиев О.Р., Гофурова К.Х. Яшил бюджетлаштириш ва уни Ўзбекистонда жорий этиш истиқболлари //Яшил иқтисодиёт ва тараққиёт илмий-электрон журналі. – Т., 2024. - №2. – Б.30-34.
3. Исмаилова Н.К. Яшил бюджетлаштиришнинг аҳамияти ва уни Ўзбекистонда қўллаш амалиёти: Moliya tizimini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari номли конференция тўплами. <https://pedagoglar.org/02/article/view/3298/3002>
4. Weng, S., Tao, W., Chen, J., & Song, M. (2025). A pathway to net-zero urban emissions: Does green fiscal policy stimulate renewable energy consumption in China?. *Sustainable Cities and Society*, 106461.
5. Lee, C. C., Wang, E. Z., & Tang, H. (2024). Green fiscal policy and carbon emission: Enterprises' level evidence from China. *Renewable and Sustainable Energy Reviews*, 203, 114795.
6. Ahmad, M., & Satrovic, E. (2023). How do fiscal policy, technological innovation, and economic openness expedite environmental sustainability? *Gondwana Research*, 124, 143-164.
7. Тадқиқотлар асосида ишлаб чиқилган

**Proofreader:** Zokir ALIBEKOV

**Layout and Designer:** Oloviddin Sobir ugli

---

**2025. № 7**

---

© When materials are reproduced, the INNOVATION SCIENCE AND TECHNOLOGY journal must be cited as the source. Authors are responsible for the accuracy of the information in materials and advertisements published in the journal. Editorial opinions may not always align with those of the authors. Submitted materials will not be returned to the editorial office.

To publish articles in this journal, you may submit articles, advertisements, stories, and other creative materials through the following links. Materials and advertisements are published on a paid basis.

You may subscribe to the journal at any time using the following details. Once subscribed, please send a screenshot or photo of your payment confirmation to our Telegram page @iqtisodiyot\_77. Based on this, we will send the latest issue of the journal to your address each month.

“The journal “INNOVATION SCIENCE AND TECHNOLOGY” has been registered by the Agency for Information and Mass Communications under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan from 09.10.2024 under the registration number №390637. License number: C-5669633. PNFL: 30407832680027

**Our address:** Tashkent city, Yunusobod district, 19th block,  
House 17.



**Acceptance of articles**

Published every  
monthly



**Directions**

Social, economic, political,  
technological, scientific

 Scopus || Scientific electronic journal specializing in Scopus

**CERTIFICATE NUMBER: №390637**

**ORDER NUMBER ACCORDING TO  
THE LICENSE REGISTER: C-5669633**

**CONTACT:**

 Contact us  
**+998 97 748 70 03**

 Telegram channel  
**t.me/scopus\_IST2100**

 Journal official website  
<https://ist-journal.uz/index.php/IST>